

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari.

Raxmonova Kumush

Zaripova Manzura

ANNOTASIYA

An'anaviy dars jarayonlarida o'qitish ko'pincha taqdimotlar va bir tomonlama muhokamalar bilan cheklanib qoladi, bu esa o'quvchilarning faollik darajasini pasaytirishi mumkin. Biroq, interfaol yondashuvlar ta'lim jarayonini boyitib, uni qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilarning e'tiborini jalg qilish va ularning faolligini oshirish usullaridan biri interaktiv stimulyatsiya (rag'batlantirish) hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda rag'batlantirishning pedagogik va psixologik jihatlari, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida samarali usullar yoritiladi.

Kalit so'zlar. Rag'batlantirish, motivatsiya, pedagogik jarayon, ta'lim sifati, emotSIONAL muhit, interfaol metodlar, baholash tizimi, hamkorlik asosida baholash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'quvchilar faolligi, xalqaro ta'lim tajribasi.

Kirish

Nima uchun aynan boshlang'ich ta'limda rag'batlantirishga alohida e'tibor berish kerak? Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali ta'lim jarayoniga to'liq moslashmagan bo'lib, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ko'pincha tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli, o'qituvchining ularga bo'lgan e'tibori, rag'batlantirish usullari va dars jarayonining qiziqarli tashkil etilishi bolaning ta'limdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning faolligini oshirish va motivatsiyasini shakllantirish uchun turli rag‘batlantirish metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rag‘batlantirish nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tashabbuskorlik va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Muhokama

Rag‘batlantirish nima va uning pedagogik asoslari.

“Rag‘bat” – inson his-tuyg‘ulari, ruhiy holatlari rivoji va barqarorlashuviga yordam beruvchi, uni faollikka undovchi psixik ta’sir. U javob reaksiyasi sifatida shaxsga ta’sir o‘tkazishning vositasi vazifasini bajaradi. Shu bois rag‘bat ham sabab, ham oqibat rolini o‘ynaydi. Psixologiyada rag‘bat inson ruhiyatiga, bilvosita dunyoqarashiga, hissiyotiga, kayfiyatiga, qiziqishiga, intilishiga ijobjiy ta’sir o‘tkazishdir. Rag‘bat moddiy va ma’naviy mazmunga ega bo‘lib, shaxsning faoliyat samaradorligi ortishiga xizmat qiladi” [2]. Rag‘batlantirishga, ayniqsa, yetarli darajada qat’iyatli bo‘lmagan bolalar ko’proq muhtoj bo’ladi. Rag‘batlantirish metodidan kichik va o’smir yoshidagi bolalar tarbiyasida foydalanish yaxshiroq samara beradi. CHunki bu yoshdagi bolalar o‘z xulqi va faoliyatini baholashga o’ta sezgirlik, chanqoqlik bilan qaraydilar. O‘qituvchi ortiqcha erkalatib yuborilgan yoki e’tibordan chetda qolgan o‘quvchilarga alohida diqqatini qaratmog’i zarur. Rag‘batlantirishning tarbiyaviy ta’sir kuchi ko‘pchilik tomonidan obhektiv qo’llab-quvvat lanishiga bog’liq. Rag‘batlantirishning ko’plab usullari mavjud bo‘lib, shulardan, mahqullah, maqtash, ishonch bildirish, qayd etish, buyruq yo’li bilan minnatdorchilik bildirish, ko‘pchilik oldida mukofotlash, rasmga tushish va boshqalarni keltirish mumkin. “Rag‘batlantirish – pedagogik ta’sir ko‘rsatish usulidir. O‘quvchilarning, bolalar jamoasining xatti-harakatlari va ishlarini ijobjiy baholash uning asosini tashkil qiladi. Rag‘batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o‘quvchilar xulq-atvorida ijobjiy xislatlarni ko‘paytirib, mustahkamlashga yordam beradi. Unda rag‘batlantirilgan o‘quvchilargina emas, balki butun sinf zaruriy



saboq oladi. Buning natijasida o'quvchilar jamoasida ishni yanada yaxshi bajarishga, tartib-intizomli bo'lishga, ishonchni oqlashga intilish yuzaga keladi” [3].

O'quvchilar faoliyatini rag'batlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari. O'quvchilar faoliyatini rag'batlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari ta'lif jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida ularga psixologik jihdan ichki va tashqi motivatsiya verish, o'z-o'zini a O'z nglashlariga yordam berish va o'quvchi va o'qituvchi o'rtadida ijobiy emotsiyonal holat muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ichki va tashqi motivatsiya – o'uchilarni rag'batlantirishda ichki motivatsiya o'quvchining mustaqil o'rghanishiga turtki veradi, tashqi motivatsiya esa qisqa mudatli rag'batlantirish vositasi bo'lishi mumkin.
- -o'zini anglashga yordam berish – o'qituvchi o'quvchini o'z qobiliyatlariini anglab, o'ziga bo'lgan ishonchni hosil qilishiga va unirivojlantirishiga rag'batlantirish samaradarligni oshiradi.
- O'qtuvchi va o'quvchi o'rtadidagi emotsiyonal muhit – ta'lif jarayonida muhim o'rinni tutadi. Bu muhit o'quvchilarnin o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, tashqi muhiga moslashuvchanligini rivojlantirish va ularning faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.


Bunga misol qilgan xolda quyidagi tadqiqotni misol qila olamiz.. “Ba'zi keng miqyosli tadqiqotlar, jumladan, tajribalar, boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatnin turli ko'rsatkichlarini (ya'ni, tarkibiy elementlar, jismoniy muhitning xususiyatlari, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar) o'rganib chiqdi. Ushbu tadqiqotlar bolalarning o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlari, ta'limga yutuqlar bilan ijobiy bog'liqlikka ega ekanligini bir necha bor tasdiqlab berdi. Misol uchun, yaqinda o'tkazilgan bir qator tadqiqotga ko'ra, sinflari ko'proq hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlanadigan va yaxshiroq boshqariladigan bolalar keyingi yil kuchliroq ijtimoiy ko'nikmalar va kamroq xattiharakatlarni namoyish etdilar. Bundan tashqari

o'qituvchilar bilan idrok va til ko'nikmalarini rag'batlantiradigan o'zaro munosabatlarbolalarning o'quv yutuqlarini yaxshilaydi.”[3]

Rag'batlantirishning amaliy jihatlari

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni rag'batlantirishda samaraliroq metodlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'tilayotgan darslikning mavzusiga bog'langan xolda rag'batlantirishg usullaridan foydalanish mumkin. Masalan 1-sinf o'quvchilari matematika darsidan “uzunlik birliklari” mavzusini utib bo'lgandan so'ng mavzuni mustahkamlash va rag'batlantirib darsga qiziqish uyg'otish uchun “Bilimlar cho'qisi” texnologiyasidan foydalansak bo'ladi. Bunda o'qituvchi A3 formatdagi listga to'gri uchburchak shaklida o'quvchilar soniga qarab tepadan pastga qarab ko'payib boruvchi “Bilimlar cho'qisi” va “2”, “3”, “4” va “5” baholari uchun maxsus mavzuga bog'langan kartochkalar tayyorlab kelgan xolda, o'quvchilarning dars davomidagi faolligi va darsga qatnashishiga qarab o'qituvchi o'quvchilarga o'lchov birliklari yozilgan kartochkalar tarqatadi. Dars so'ngida o'quvchilar o'zi to'plagan kartochkalarni hisoblab kim qancha o'zoq massofagacha bora oladi deya barcha ballarni hisoblab , kim ko'p ball to'plaganiga qarab “bilimlar choqisi” dan joy olaveradi. Rag'bat kartochkalari dizaynnini tanlash har bir pedagogning o'z ixtiyorida bo'lib, quyida baholar kesimida kartochkalarga namunalar keltirilgan:



Millimetр.

Сантиметр.

Метр.

Километр.



Bu texnologiyani nafaqat uzunlik o'lchov birliklari balki og'irlik, hajm, va vaqt birliklari mavzulari uchun ham moslashtirsak bo'ladi. Bu usulning afzalliklari shundaki, o'quvchilarning uzunlik, og'irlik, hajm hamda vaqt o'lchov birliklari haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. O'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilar ham darsga nisbatan qiziqishi ortib, o'z potensialiga qaraganda ancha yuqori natijalarni qayd etadi. Bu metodni matematika darslaridan tashqari boshqa darslarga tatbiq etish ham maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchi biroz o'zlashtirishi qiyinroq bo'lgan o'lchov birliklari mavzusini har doim yodda saqlashi mumkin.

Ilmiy va amaliy tadqiqotlar

Boshqa mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim tizimlarida rag'batlantirish.

Turli mamlakatlarda o'quvchilarni rag'batlantirish tizimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har birining ta'lim falsafasi, madaniyati va ijtimoiy qadriyatlariga mos ravishda shakllangan. Quyida ba'zi davlatlardagi rag'batlantirish tizimlari haqida ma'lumotlar keltirilgan:

■ Япония

Yaponiyada o'quvchilarni rag'batlantirishda jamoaviylik va intizomga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar o'z sinfdoshlariga yordam berish, sinf va maktab faoliyatlarida faol ishtirok etish orqali rag'batlantiriladi. Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsiy yutuqlarini emas, balki jamoaviy muvaffaqiyatlarini ta'kidlaydi.

■ Финляндия



Finlyandiyada o'quvchilarni rag'batlantirishda ichki motivatsiyaga urg'u beriladi. Baholash tizimi o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga yo'naltirilgan bo'lib, raqobatni emas, balki hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilar o'quvchilarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etadi. Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati ko'plab omillarga, jumladan, hamkorlikka asoslangan baholash tizimiga bog'liq. Ushbu tizimda o'quvchilar individual yutuqlaridan ko'ra, jamoaviy muvaffaqiyatlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv o'quvchilarda hamkorlik, jamoaviy ishslash va o'zaro yordam ko'nikmalarini rivojlantiradi.

■AQSh

AQShda o'quvchilarni rag'batlantirishda mukofotlash tizimlari keng qo'llaniladi. Bu mukofotlar nafaqat akademik yutuqlar, balki sport, san'at va ijtimoiy faoliyatlar uchun ham beriladi. Shuningdek, o'quvchilarining individual yutuqlari e'tirof etilib, ularni qo'shimcha dasturlar va grantlar bilan rag'batlantirish tizimi mavjud.

■Germaniya

Germaniyada o'quvchilarni rag'batlantirishda kasbiy yo'naltirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda turli yo'nalishlarga yo'naltiriladi va bu yo'lida ularning muvaffaqiyatlari rag'batlantiriladi.

Pedagogik tajribalar va innovatsiyalar

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish rag'batlantirish jarayoniga qanday ta'siri. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarni o'qishga rag'batlantirishda kuchli vosita bo'lib, ta'lim jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qiladi. Bu esa nafaqat o'quvchilarining bilim darajasini oshirishga, balki ularning mustaqil fikrashi, ijodkorligi va mas'uliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu ta'lim texnologiyalari o'quvchilarni rag'batlantirish jarayoniga sezilarli

ta'sir ko'rsatadi. Ular o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va interfaol qilish orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Masalan:

- Videodarslar, virtual laboratoriylar va interaktiv taqdimotlar o'quvchilarning diqqatini jalg qiladi va materialni osonroq tushunishiga yordam beradi.
- Online darslar va virtual sinflar orqali o'quvchilarga mustaqil va moslashuvchan ta'lif olish imkoniyati yaratiladi. Bu ayniqsa chekka hududlardagi o'quvchilar uchun muhimdir.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi faoliyatini rag'batlantirish – ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rag'batlantirishning psixologik va pedagogik asoslari o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi emotSIONAL muhitni ijobiy shakllantirish ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi va tashqi muhitga moslashuvchanligini rivojlantiradi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni rag'batlantirish nafaqat ularning motivatsiyasini oshiradi, balki ta'lim jarayonini qiziqarli, samarali va ijodiy qiladi. Bu esa yosh avlodning kelajakda mustaqil fikrlaydigan, faol va tashabbuskor shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
2. Rasulova, Y., Maqsudova, D. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
3. Xayitova, Zilola Maxmudjonovna. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining ta'lim sifatiga ta'siri.

4. Farspublishers. O‘zbekistonda baholash tizimini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish yo‘nalishlari. – 2023.
5. Kun.uz. “O‘quvchi va o‘qituvchi orzusi – Finlyandiya ta’lim tizimi” maqolasi. – 2018-yil.